

Date: 13<sup>th</sup> December-2024

**MAKTAB ADABIYOT DARSLARIDA MUMTOZ ADABIY MATNLARDAGI  
MORFEMALARING ANGLATGAN MA'NOLARINI O'QUVCHILARGA  
TUSHUNTIRISH**

**Hasanova Nargiza Abdurazzoqovna**

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi

**Annatatsiya:** Mazkur maqolada maktab adabiyot kursida o'quvchilarga mumtoz adabiy matnlarda uchrovchi morfemalarning o'zbek tiliga tabdilini hamda ularning anglatgan ma'nosini o'quvchilarga tushuntirish yo'llari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** mumtoz adabiy matn, leksik xususiyat, grammatick xususiyat, morfemik sath, affiksoid, inversiya, izofa.

**Annotataion:** In article analysed ways of the explanation of the morpheme classical literary text and are given methodical recommendations.

**Key words:** classical literary text, lexical particularity, grammatical particularity, morfemical surface, afficsoid, inversion, article.

**Аннотация:** В статье анализируются способов объяснения морфемы классических литературных текстах и даются методические рекомендации.

**Ключевые слова:** классический литературный текст, лексическая особенность, грамматическая особенность, морфемическая поверхность, аффиксоид, инверсия, артикль.

Ma'lumki, umumiyl o'rta ta'lim dasturida adabiyot fani 5-sinfdan boshlab o'rganiladi. Xuddi shu sinf bosqichidan boshlab adabiyot dasturida mumtoz asarlardan namunalar o'rganib boriladi. Keyingi bosqichlarda beriladigan mumtoz adabiyot namunalari soni va hajmi kengayib boradi. Sababi, o'zbek milliy adabiyotining juda katta qismini mumtoz adabiyot tashkil etadi.

Maktab adabiyot kursida "Mumtoz asarlarni tushunish, tahlil qilish nafaqat o'quvchiga, balki o'qituvchiga ham qiyinchilik tug'dirishi hech kimga sir emas." [5. 4] Ana o'sha murakkablik tug'diradigan omillardan biri – uning til xususiyatlarini anglashdir. Til bilan bog'liq qiyinchiliklar asosan leksik, grammatick hamda morfemik sath bilan bog'liqdir. Agar o'quvchi o'rganilayotgan matnda bildirilgan fikrni tushunmasa, undagi jozibani, badiiyatni, muallifning mahoratini anglay olmaydi. O'quvchi uchun til to'sig'ini yengish matnga kirish, ijodkorning badiiy olamiga dastlabki qadam demakdir.

Asarlarning leksik xususiyatlari ustida ishslash adabiyot darslarining muhim bosqichi sanaladi. Buni hamisha e'tibordan soqit qilmagan holda adabiyot muallimi har doim dars mashg'ulotlarining nazariy ma'lumot qismida o'quvchilarga mumtoz asarlarning leksik qatlami asosan quyidagi uch tildagi so'zlardan iborat ekanligini singdirib borishi zarur:

- a) umumturkiy so'zlar: *og'oz, ochun, qamuq, ujmoh, tamug'*.
- b) arabcha so'zlar: *liqo, tamanno, shams, qamar, hayl*.
- v) forscha so'zlar: *magar, shahd, gardun, rishta*.

Date: 13<sup>th</sup>December-2024



Asarlar leksikasi bilan bog’liq murakkablikni bartaraf etish uchun darsliklarda lug’at berilgan, shuningdek, ayrim qunt qilgan o’qituvchilar adabiyot darslari uchun alohida lug’at daftari tuttiradilar va doimiy ravishda lug’atlarni yodlatib boradilar. Yil davomida shu taxlit ish olib borilsa, tezda o’z samarasini beradi. O’quvchilar ko’p uchraydigan, matnlarda takrorlanadigan mumtoz asarlarning faol lug’atini o’zlashtirib oladilar va asta-sekin leksik qatlam bilan bog’liq murakkablik anchayin yengillashib boradi.

Mumtoz adabiyot namunalarida arab va fors-tojik tiliga oid so’z va leksemalar ko’plab uchraydi. Tilimizga arab tilidan o’zlashib, singishib ketgan, hozirda ularning asli arabcha so’z ekanligini faqat mutaxassislargina biladigan bir qator leksemalar shu tildan o’tgan old qo’shimchalar tufayli yana begonalashib, ba’zan lug’at bilan ishslashda bir qator qiyinchiliklar tug’dirib qoladi. Arab tilidan o’zlashgan so’zlarda harakat nomi (-sh, - ish), sifatdosh (-gan) qo’shimchalariga to’g’ri keladigan **ma-**, **mu-**, **ta-** hamda ko’plik (-lar)ni bildiradigan **a-**, **u-** old qo’shimchalari qo’llanadi. Bunday old qo’shimcha (perefiks)lar bilan kelgan so’zlarning anglatgan ma’nolarini aniqlash uchun old qo’shimchalar o’zakdan olinadi va faqat so’zlarning undoshlarigina o’qiladi. Qaysi so’z shakli chiqayotganiga qarab kerakli unlilar qo’yib olinadi. Olaylik, “**maqsad**” so’zi. Dastlab **ma**- old qo’shimchani olib tashlaymiz va undoshlarni o’qiyimiz: **q s d**. Ulardan qasd so’zining shakli ko’rinib turibdi, demak, “q”dan keyin “a” unlisi qo’yiladi va **maqsad**ning ma’nosini **qasd qilish** ekani namoyon bo’ladi. O’quvchilar **madfun** so’zini eshitmagan bo’lishlari mumkin. Xuddi shu yo’l bilan ma’no chiqariladi: **ma**- olinadi, **dfn** dan iborat undoshlar qoladi va ular **dafn** so’zining “skeleti” ekanligi ko’rinib turibdi. Мадфун – дафн килинган. **Mu**- old qo’shimchasi uchun mukammal so’zini olish mumkin. Old qo’shimcha olingandan so’ng **kml** undoshlari qoladi va o’quvchilar kamol so’zini oson ilg’aydilar hamda bu leksik birlik bizda **kamolga yetgan** ma’nosida ekanligi oydinlashadi. **Ta**- qo’shimchali so’zlarga ham ayni yondashuv kerak bo’ladi: **taqsim** – qismlash, **takmil** – kamolga yetkazish. Ko’plik hosil qiluvchi **a**- perefiksli so’zlar ma’nosini yuqoridagi kabi aniqlashtirilishi mumkin: **axbor** – xabarlar, **atrof** – taraflar. Lekin **u**- qo’shimchasi hosil qilgan ko’plik bilan bog’liq ikki holatni bilish kerak. Birinchisi, u shaxs oti ma’nosini beruvchi ko’plik yasaydi, bunday holda “o” unlisi bilan tugaydi va bu perefiks o’rniga **a** yoki **i** unlilarini qo’yish kerak bo’ladi. Masalan, **ulamo** so’zidagi undoshlar **Im** hech qanday so’zni keltirib chiqarmaydi. Yuqoridagi ikki unlidan birini qo’yish kerak: **alm** yoki **ilm**. Albatta, bu ko’plik **ilm** so’zidan bo’lib, shaxs otini yasar ekan (so’z oxiridagi “o” buning ko’rsatkichi), ilmlilar, ya’ni olimlar ma’nosida ekanligini o’quvchilar darrov payqaydilar. Ikkinchisi, agar “o” so’zi bilan tugamagan ko’plik hosil qilgan bo’lsa, turdosh (ko’pincha mavhum) otning ko’pligi bo’lib, aytilganday, **a** yoki **u** unlilaridan birini bu perefiksga almashtiriladi. Masalan, **ulum** – **ilmilar** deganidir. Xuddi shu kabi **uqul** – **aqlar**, **uqalo** – **aqlilar**, oqillar va h.k.

Ba’zan **ta**- bilan hosil bo’lgan shakllardan ma’no chiqarish uchun perefiks olib tashlangach, so’z oxiriga **-at** qo’shimchasini qo’yib olish talab etiladi, yo’qsa ma’no chiqmaydi. Masalan, **tahrik** so’zidan old qo’shimcha olinsa, **hrk** undoshlari qoladi, ulardan keyin **-at** qo’yilsagina **harakat** so’zi kelib chiqadi. Shuningdek, **tahayyur**

Date: 13<sup>th</sup>December-2024

so'zidan **ta-** ni olib, oxiriga **-at** qo'shsak, **hayrat** hosil bo'ladi va bu so'z *hayratlanish* degani ekanini bilamiz. Bu so'zlarni shu shakllarda qo'llanishi vazn va qofiya talabi bilan ham izohlanishi mashg'ulotlarning ilmiy qimmatini oshiradi. O'quvchilarni mashq qildirish uchun o'qituvchi old qo'shimchali *mu* nojot – najot, *maxluq* – xalq, *taslim* – salim, *taqdir* – qadar, *taajjub* - ajab, *Muhammad* – hamd, *ma'shuq* – oshiq kabi so'zlarni beradi, o'quvchilar esa uning o'zagidan ma'nosini aniqlaydilar. Ko'plik shaklini aniqlash uchun avsof – vasflar, avqot – vaqtlar, avhom – vahmlar, umaro – amirlar, ukus – akslar, ufuq – ufqlar so'zları ham bolalar tomonidan turlichada bajariladi.

Albatta, bu usul arabchadan o'tgan barcha so'zlar uchun emas, balki o'zagi yoki negizi tilimizga o'zlashib, o'zimiznikiga aylanib qolgan bir qator so'zlarga nisbatan qo'llanadi va matnni oson va tez tushunishga yordam beradi. Bunda vaqt tejaladi, o'qituvchi va o'quvchining mehnati yengillashadi.

**Grammatik xususiyatlar** to'g'risida gapirganda avvalo morfologik ko'rsatkichlar – suffiks va perefiks ustida ko'p ishslash tavsiya etiladi. Ularni o'quvchilar tanishi va ma'nolarini bilib olgan bo'lishlari kerak. Alovida darsda yoki qo'shimcha mashg'ulotda ularni tushuntirib, yozdirib qo'yish maqsadga muvofiq. Oldin turkiy qo'shimchalar beriladi. Sof o'zbekcha **-man**, **-mon**, **-mam** qo'shimchalari ravishdoshning bo'lishsiz shakli + shaxs-son qo'shimchasi, ya'ni **-may+man** shakllari hamda *emas* to'liqsiz fe'li o'rnda keladi. Masalan, *kelman*, *aytmon*, *topmam* fe'llari hozirda *kelmayman*, *aytmayman*, *topmayman* tarzida ishlataladi. Misol: "Yarar jon desam yoqtingizga, *Teng etmon* Zuhroni Xorutingizga" (Xorazmiy). Bu baytdagi *Teng etmon* birikmasi "teng etmayman" deganidir, yoki "Ko'ngul bermish so'zumga turk jon ham, Ne yolg'iz turk, balkim *turkmon ham*" (Navoiy). Bu baytdagi *turkmon ham* birikmasi "turk emaslar ham" degan ma'noni ifodalamoqda.

**-ki**, **-kim** bog'lovchi yuklamasini o'quvchilar yaxshi anglamasliklari mumkin. Ayniqsa, **-kim** bog'lovchi yuklamasi o'zi ta'kid bergan so'zdan ajratilib, keyingi misra boshida kelganda o'quvchilar uni "kim" so'roq olmoshi deb bilishadi va tahlilda ma'no chiqarolmay qiynalishadi:

Bu kecha voqif bo'lung evlardin, ey hamsoyalar

*Kim*, manga tushmish firoq otashgahidin mahkam o't. [2. 97]

Birinchi misra hamda ikkinchi misra boshidagi "Bu kecha voqif bo'lung evlardin, ey hamsoyalar Kim..." jumlesi hozir tilimizda "Ey hamsoyalar, bu kecha uylardan xabardor bo'linglarki..." tarzida qo'llaniladi. Agar ikkinchi misra boshidagi *kim* bog'lovchi-yuklamani so'roq olmoshi sifatida qabul qilinsa, umuman ma'no chiqmaydi.

Kelishiklarning belgisiz qo'llanishi ham o'quvchini chalg'itadi: "**Ko'zung jon labga yetkurdi, labing jon qo'shti jonimga, Bu ikki do'stlar ul joni mahzunim taloshibdur**". O'quvchilar birinchi misrada ikki marta qo'llangan "jon" so'zida va ikkinchi misradagi "mahzunim" so'zida tushum kelishigi yashirin kelganligini topa olsalar, baytni anglashlari oson kechadi.

Mumtoz matnlarda arab va fors tillaridagi ko'plab affiksoidlar qo'shilgan so'zlar uchraydi. Ularning barchasini yoki ko'p qismini eslab qolish o'quvchi tugul, o'qituvchiga ham og'irlik qiladi. Lekin eng ko'p qo'llanadigan o'zbek tiliga affiksoid sifatida

Date: 13<sup>th</sup>December-2024



o'zlashgan birliklarni o'quvchilarning daftariga ularning ma'nolari bilan lug'at sifatida yozdirib qo'yish va yod oldirish maqsadga muvofiqligi amaliyotda o'z tasdig'ini topdi. Masalan, **-afshon** affiksoidi sochuvchi ma'nosini anglatadi. Buni yoddan bilgan bola gulafshon, durafshon, anbarafshon so'zlarining o'zagini bilgani uchun affiksoid qo'shilgan shakl ma'nosini lug'atsiz darrov idrok etadi. Asarlarda eng ko'p qo'llanadigan affiksoidlar quyidagilar:

- (a)fshon** – sochuvchi: anbarafshon; - **jo'(y)** – tilovchi: istovchi: balojo';
- **oroy** – bezatuvchi: anjumanoroy; -**kash** – mubtalo: balokash;
- **vash** – simon: parivash; - **angez** – a) keltiruvchi: nishotangez;  
b) o'xshash: bulbulangez; - **oso** – -dek: qumrioso;
- **vor** – -day: devonavor; - **namo(y)** – o'xshash;
- **po'sh** – kiygan: gulgunpo'sh; - **afzo** – bag'ishlovchi: jonafzo;
- **rez** – to'kuvchi: shakkarrez.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan bilim va malakalarini mustahkamlash uchun mazkur qo'shimcha, affiksoidlar ishtirot etgan baytlardan misollar topishni uyga topshiriq qilib berish mumkin. Shuningdek, o'qituvchining o'zi ham shunday baytlardan ikki-uchtasini har darsda mashg'ulot davomida berib, tahlil qildirib borishi yaxshi natija beradi. Bu jarayon adabiyot ta'limining keyingi sinflardagi bosqichlarida ham uzviy ravishda eslatilishi va takrorlanishi lozimi bo'ladi.

Mumtoz asarlarni o'qitishda **inversiya** to'g'risida tushuncha berish ham katta ahamiyatga ega. Inversiya umuman she'riyat uchun xos bo'lib, tilshunoslikda gap bo'laklarining o'rinni almashinuvini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, inversiya – gap bo'laklarining o'zgargan tartibidir. Inversiya barmoqdagi she'rlarda ham ko'p uchraydi. Agar barmoqdagi she'r matnlari ustida yaxshi ishlab kelungan bo'lsa, mumtoz she'rlarni tushunish ancha yengil ko'chadi. Lekin mumtoz adabiyotda inversyaning arab va fors tillariga xos bo'lgan **izofa** shakli asarlarni tushunishda katta qiyinchilikka sabab bo'ladi. Izofada asosan aniqlovchi va aniqlanmishning o'rinni almashinuvni kuzatiladi. Forsiy izofali birikmalar - **i**, (-**yi**) tutashtiruvchi unli bilan bog'lanadi. So'zlashuv nutqida ham ba'zan izofali birikmalardan foydalilanadi. O'quvchilarga tushuntirishni ana shu tanish birikmalarni izohlashdan boshlash kerak. Masalan, *oyinai jahon, ahli Andijon, ovorai jahon* kabi. Bunday birikma va jumlalar ma'nosini oydinlashtirish, tushunishni yengillashtirish uchun izofadagi aniqlovchi va aniqlanmishning o'rnnini almashtirib, o'zbekcha gap bo'laklari tartibiga keltirib olish kerakligi uqtiriladi. Ularning o'rni almashtirilganda o'zbekcha tartibda egalik qo'shimchasini qo'yib olishga to'g'ri keladi: *jahon oyinasi, Andijon ahli, jahon ovorasi*. Bu birikmalarning ma'nosini tushuntirilgandan so'ng misollar keltirish uchun baytlarga murojaat qilnadi. M:

Ahvoli дилим айтғали бир маҳраме топмай,

Зулмингни қариндошу, ғамингни падар эттим. [4. 63]

Baytdagi birinchi misrada "ahvoli dilim" izofa bo'lib, so'zlarining o'rnnini almashtirsak, "dilim ahvoli" tarzidagi o'zbekcha birikma yuzaga keladi va tushunish o'quvchilar uchun osonlashadi. Birikmali **izofa zanjiri** sifatida qo'llangan baytlarni tushunish yanada qiyinlashadi. Oddiy izofa ikki so'zdan iborat bo'lsa, izofa zanjirli

Date: 13<sup>th</sup> December-2024



birikmada uch va undan ortiq so'z ishtirok etadi. Ularni tushunishga qulay qilish uchun o'zbekcha gap bo'laklari tartibiga keltirib olinadi. Buning uchun izofa zanjiridagi oxirgi so'zdan boshlab birinchi so'zgacha teskari o'qiladi va o'zbekchalahtiriladi. Misol:

Men aftoda-yu bedil, g'aribi dog'i hijronman,

O'zung'a ofarin derman, seni ko'rmay qaror ettim. [4. 63]

Bu baytning birinchi misrasida "g'aribi dog'i hijronman" birikmasi izofa zanjiri bo'lib, oxirgi so'zdan teskari o'qiymiz: "hijron dog'inining g'aribiman" shaklidagi o'zbekcha tartib yuzaga keladi va birinchi misra "Men mubtalo-yu oshiq, hijron dog'inining g'aribiman" deya oson tushuniladi.

Ayrim hollarda zanjirli izofa to'rt so'zdan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rub oshufta holi zorimi ahboblar aytur:

Giriftori kamandi zulfi jonon o'ldi o'xshaydur. [3. 104]

Birinchi misrada "holi zorim" oddiy izofa, u "zor holim", ya'ni zor bo'lgan ahvolim ma'nosini beradi. Ikkinci misradagi "Giriftori kamandi zulfi jonon" izofasi to'rt so'zdan iborat zanjirdir. Bu yerda kamand – sirtmoq, zulf – soch ma'nosini beradi. Zanjirni ters o'qib, o'zbekcha tartib tusini beramiz: *jonon sochi sirtmog'inining giriftori* shaklidagi ifoda yuzaga keladi. Baytning ma'nosi: "telbalarcha (oshufta) zor ahvolimni ko'rigan do'stlarim (ahboblar) deyishadiki: jonon sochining sirtmog'iga giriftor bo'lganga o'xshaydi".

Izofali birikmalarni III shaxs -i egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan o'zbekcha birikmalarga chalkashtirmaslik kerak. Yana Amiriyning baytiga murojaat qilamiz:

Ko'ngul la'li tamannosi bila qon o'ldi o'xshaydur,

Ko'zim oyinadek husniga hayron o'ldi o'xshaydur. [3. 104]

Birinchi misradagi "la'li tamannosi" birikmasida -i qo'shimchasi izofadagi "i" tutashtiruvchi unliga o'xhab ketadi. O'quvchilar uni shunday qabul qilishlari mumkin. Lekin bu yerda u egalik qo'shimchasi ekanligini ularga tushuntirib o'tish joiz bo'ladi.

"Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita" [1. 13] bo'lmish adabiyotni o'rgatishda badiiy tahlil jarayonida yuqoridagi tavsiyalardan foydalanish orqali tarbiyalanuvchini "badiiy asar o'qimasa turolmaydigan ruhiy pedagogik holatga" [6. 67] olib kelish mumkin bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Алишер Навоий. Топмадим: Ғазаллар/ (тахрир ҳайъати А. Қаюмов ва бошқалар). Тошкент: F.Фулом, 1988. –Б.97.
2. Амирий, Қошингга тегузмағил қаламни: Ғазаллар. Тошкент: Шарқ. 2008, - Б 104.
3. Mashrab, Boborahim. Dilim daryoi nurdir: Tanlangan she'rlar. Toshkent: G` . G`ulom, 2004. – В 63.
4. Q. Yo`ldoshev, V. Qodirov Adabiy saboqlar: Umumta`lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B.4.
5. Q. Yo`ldoshev, Q. Husanboyeva. Umumiy o`rta ta`lim davlat ta`lim standarti. Adabiyot. Ta`lim taraqqiyoti. UzRXTV axborotnomasi, 1-maxsus son. Toshkent: Sharq, 1999. – B. 67.